



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

TOHIR MALIK" ENG KICHIK JINOYAT" QISSASI
QAHRAMONLARI TAHLILI VA QISSANING JAMIYATGA TA'SIRI

Turdiyeva Marjona Baxodirovna

Termiz Davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

+998917133121

e-mail: m65712806@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Tohir Malikning "Eng kichik jinoyat" qissasining qahramonlari va ularning ishtirokida sodir bo'lgan voqea-hodisalar badiiy va ijtimoiy tomondan tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda, obrazlardagi jihatlarining jamiyatimizdagi insonlarga xos xususiyatlari o'rganiladi.

Аннотация: В данной статье с художественной и социальной точки зрения анализируются персонажи повести Тахира Малика «Самое маленькое преступление» и события, происходившие с их участием. изучаются характеристики людей в нашем обществе.

Abstract: This article analyzes the characters of Tahir Malik's story "The Smallest Crime" and the events that occurred with their participation from an artistic and social perspective. At the same time, the aspects of the images characteristics of people in our society are studied.

Keywords: Tahir Malik, crime, fasting, "dead money", religion.

Kalit so'zlar: Tohir Malik, jinoyat, ro'za, "o'limtik puli", din.

Ключевые слова: Тахир Малик, преступление, пост, «мертвые деньги», религи

Keywords: Tahir Malik, crime, fasting, "dead money", religion

KIRISH

Insonlar dunyo uchun cho'ldagi vahshiy hayvonlardek yuguradi , ammo ularga taqsimlab qo'yilgan rizqdan ortig'i kelmaydi . Qissa davomida esa dunyo izidan quvgan insonlar nimalarga duchor bo'lishini har bir qahramon orqali yoritib berilgan. Masalan, yoshi 70dan oshgan Mohina kampir qizining ishlari yurishib ketishi uchun ro'za tutishi , nabirasi Suhrob buvisining "o'limtik puli"ni giyohvand modda sotib olish uchun o'g'irlashi va Zarina va Jo'raning yaxshigina ishini tashlab chet elga ketishi asar davomida yaqqol namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Tohir Malikn ijodiga mansub "Eng kichik jinoyat" qissasida ham yuqoridagi voqealar haqida so'z boradi. Qissada "jinoyat" qilgan qahramon Suhrob bo'lsa-da, bu jinoyatga sababchi bo'lib qahramonlar talaygina. "Jinoyat" dunyosi juda qamrovli bo'lib, bora-bora bu olamga bilib-bilmay kirganlar hisobiga kengayib boradi. Maqsadlari -boylik . Ammo to'plagan boyliklaridan bir hovuch u dunyoga bir hovuch olib keta olsalar. Qissaning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

asosiy qahramonlaridan biri Mohina kampirning ham biz aytayotgan dunyoga kirishiga ham asosiy sabablaridan biri boylik bo'lgan edi.

Birinchi o'rinda ,har bir yomon illatga oila muhiti va oila a'zolari sababchi bo'ladi. Savdogar Mohina kampir ham hech qanday din ,vijdon, yaxshilikka e'tibor berilmagan oilada o'sgan. Ya'ni,savdoda nasiyaga narsa bermagani kabi 70 yoshga kirib ro'zaning ajrini kechikmasligini duolarida talab qiladi.Ajrga esa u qizi Zarinaning Amerikadan "boy xotin"bo'lib kelishini so'ragan edi.

Biz bu asardagi bosh qahramon holatini tasavvur qilsak, boshqa qahramonlar haqida o'ylashga ham o'jizlik qilamiz. Nabirasi Suhrobgga to'xtaladigan bo'lsak, buvisining erkalatishi natijasida givohvandlarning jinoiy guruhiga qo'shilib qoladi va uydagi pullarni o'g'iray boshlaydi hattoki,uy jihozlarini ham pullaydi.Kitoblar haqiqatni so'zlaydi .Suhrob ham jamiyatimizdagi e'tiborsiz qolgan ,ota-onasidan so'ramasdan istagan ishini qiladigan farzand misoli sifatida keltiriladi . Xolbuki,uning tengdoshlari bir kasb egasi bo'lishiga qaramasdan .

Misol qilib ,Suhrob qilgan jinoyatni ochib bergan maktabdagi sinfdoshi palitsiya xodimi Shuhrat edi .Asar voqealari davomida Suhrob jinoyati tufayli qo'lga olinadi ,ota-onasi Jo'ra va Zarina chet elda vafot etishadi, buni eshitgan Mohina kampir yuragi og'rib vafot etadi.

XULOSA

Mazkur fikrlar keltirilar ekan ,kimdir xorijda baxt izlashni xayol qilib o'tirgandir.Biz bu orqali har bir inson avval o'ylab, keyin bu yo'lga qadam qo'yishini istardik. Asarda hozirda dolzarb muammo bo'lgan befarqlik,o'g'irlik va nafs kabi illatlarning qay tarzda o'zimiz va o'zgalar hayotiga ta'sir qilishi yaqqol ko'zga tashlanadi.Zero, shayton har bir joyda o'z domiga chorlar ekan,siz-u bizdan har narsaga ishonmaslik talab qilinadi.

REFERENCES:

1. Tohir Malik "Eng kichik jinoyat:Tintuv"//O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti,2018.
- 2.Tohir Malik "Eng kichik jinoyat: Pushaymon po'rtanasi"//O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti,2018.
3. Tohir Malik "Eng kichik jinoyat:Olg'irtoy"//O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti,2018.
- 4.. Tohir Malik "Eng kichik jinoyat:Egasiz o'lik"//O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti,2018.

